

BUGUNGI KUNDA IJTIMOY TARMOQLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Qarabayev Jamshid Rustamovich

NamDU Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi,

Abdujalilova Kamolaxon Abduvohidjon qizi

Mirzavaliyeva Saida Alisher qizi

NamDU Fizika-matematika fakulteti, matematika yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari yoritilgan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olish, ijodiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar rivojlanishi bilan bir qatorda, virtual qaramlik, axloqiy buzilish va kiberxavfsizlik kabi xavflar ham tahlil qilingan. Maqolada ota-ona va o'qituvchilarning roli hamda yoshlarni ijobiy kontentga yo'naltirish bo'yicha takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, axborot texnologiyalari, raqamli madaniyat, kommunikatsiya, shaxs rivojlanishi

Annotation: This article analyzes the positive and negative impacts of social networks on youth education and upbringing. It discusses how social media can enhance access to information, creativity, and communication skills, while also highlighting risks such as internet addiction, moral decline, and cybersecurity threats. The paper also emphasizes the role of parents and teachers, offering recommendations for guiding young people toward safe and beneficial digital content.

Keywords: Social media, youth, information technology, digital culture, communication, personality development

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние социальных сетей на воспитании молодежи. Анализируются как положительные стороны — доступ к информации, развитие творчества и коммуникативных навыков, так и негативные — интернет-зависимость, нравственные риски и проблемы кибербезопасности. Также подчеркивается роль родителей и педагогов, приводятся рекомендации по направлению молодежи к безопасному и полезному интернет-контенту.

Ключевые слова: Социальные сети, молодежь, информационные технологии, цифровая культура, коммуникация, личностное развитие.

Hozirgi kunda Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat aloqa vositasi, balki yoshlarning dunyoqarashi, xulq-atvori va tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga singib ketgani bois, yoshlarning tarbiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlar ta'sirini chuqur o'rganish pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir.

Bugun ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomomlami sog'lom shaxsni shakllantirish jahon standartlariga javob bera oladigan raqobatdosh milliy kadrlar korpusini yetishtirib berish ota-onalar hamda ustozlar murabbiylar oldida turgan eng

muhim vazifa hisoblanadi. Albatta, bu ta'lim va tarbiyasiz amalga oshmaydi. Qadimdan o'zbek xalqi bolani tarbiyalashda uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida yondoshgani qaysiki adabiyot yoki asarni qo'lga olishimizdan qat'iy nazar insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga doir fikr-mulohazalarga alohida to'xtalib o'tgani dalildir.

Taxiy boy ma'naviy meros negizida mohiyat esa ta'lim, ya'ni ilm olmagan inson ruhsiz tana ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Aynan inson kamolotida ta'lim va tarbiya insonni ulug'likka yetaklovchi omil ekanligini va u orqali inson o'z ilmini kelajak avlodga yetkazib berish, uni abadiylikka muhrlashi mumkinligiga guvoh bo'lamiz. Tarbiya xususida so'z yuritganimizda pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llanilgan. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisi sifatida keltirilgan. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi.

Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Ammo, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Boisi, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki, odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Shu bois, bolaga yoshligidan tarbiya berish uchun tarbiyaning turlarini bilib olish lozim.

Bugungi kunda hayotimizni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, har bir kunimiz axborot texnologiyalari bilan uzviy holda kechadi. Dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, yangiliklarni biz internet tarmog'i yoki OAV orqali olamiz. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, internet va axborot texnologiyalari bugungi kunning muhim omillaridan biriga aylandi. Aytish mumkinki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalaniladigan shaxslar bo'ladi. Bugun dunyoning eng chekkasida sodir bo'lgan voqea-hodisalar bir lahzadayoq osongina xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ana shunday imkoniyatlar ortidan yuzaga keladigan tahdidlardan bizning yoshlarimiz ham chetda qolgani yo'q. Ayniqsa, bugungi yoshlarning internet tarmog'ida ko'r-ko'rona ergashib kiradigan sayt va portallar

mavjud. Ular tarqatayotgan millionlab xabarlar ortidan yoshlar ongini zaharlaydigan, kishini sehlrab, o'z domiga tortadigan xabarlar kun sayin ortib borishi ortidan bolalar tarbiyasiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazib qolmoqda. Avvalgi bolalar ko'chaga chiqib o'ynab yomon kishilar ta'siriga duchor bo'lgan bo'lsa, hozirgi bolalarning salbiy ta'sirga tushishi uchun ko'chaga chiqishi shart emas. Unga qo'lidagi gadjet va smartfonlarning o'zi yetarli. Endi bolalar tarbiyasi qo'lidagi kichik buyum orqali o'zlashtirgan xabar yoki ma'lumotiga bog'liq bo'lib qoldi. Bugun hayotning asl haqiqatlarini hali tushunib yetmagan yoshlar internetni yovuzlik quroli qilib olganlari uchun tayyor o'ljaga aylanib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan mushohada qiladigan bo'lsak, dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib borishda davom etmoqda. Unda kuchli ta'sirga ega bo'lishning eng maqbul yo'li, har qancha mablag' talab etilishdan qat'iy nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeyini egallash ekani ayon bo'lib qoladi.

Oddiyroq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq – ma'lumotlar, bir taraflama yoki ikki taraflama aloqalarga ega bo'lgan odamlar guruhidir. Ma'lum maqsad va faoliyatga qaratilgan bu ijtimoiy tarmoqlar o'z davrida ziyonidan ko'ra foydasi ko'p edi.

Bugun butun dunyoda ko'plab insonlar ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib kelmoqda. Bu insoniyat uchun juda ko'p sohalarda keng imkoniyat va qulayliklar ochib berdi. Ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Har kuni ertalab o'rnimizdan turganimizda, ko'p hollarda, albatta, telefonimizni qo'limizga olamiz va Telegram, Instagram yoki Facebook kabi tarmoqlarga kiramiz. Bulardan foydalanishning ko'pgina afzalliklari bor. Biz bu ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'pgina kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, yangi do'stlar orttirishimiz, yangiliklardan xabardor bo'lishimiz, yangi narsalar o'rganishimiz, do'stlarimiz bilan suhbatlashishimiz mumkin. Hattoki, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o'z bizneslarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ular o'z mahsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilib brendlarini tanitish, o'zlari uchun xaridorlar auditoriyasini yig'ish va yangi mahsulotlarini xaridorlarga e'lon qilishlari mumkin. Bu albatta reklama qilib brendlarini tanitish, o'zlari uchun xaridorlar auditoriyasini yig'ish va yangi mahsulotlarini xaridorlarga e'lon qilishlari mumkin. Bu albatta ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning biz uchun afzalliklari. Lekin afsuski, har doim ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish biz uchun foydali bo'lmaydi.

Inson aql idroki rivojlanishi va ilm fandagi ulkan yutuqlar jamiyat rivoji bilan birgalikda uning tabiiy va biologik xususiyatiga sezilarli ta'sir etayotgani bugungi odamlarning yuz tuzilishidan tortib, dunyo qarashlarida ham sezilarli darajada o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. XXI asr bolalari bundan 10–15 yillar avval “kompyuter texnologiyalari” asri bolalari, so'ngra “raqamli texnologiyalar” va “nano texnologiyalari” asri bolalari degan so'zlar bilan almashib ulgurmasdan “sun'iy intellekt” bolalari atamasi kirib kelib, katta avlod va yetishib kelayotgan avlod vakillari o'rtasidagi farqni keskin oshirib yubormoqda. Go'dakligidan internet va portativ raqamli texnologiyalar og'ushida voyaga yetayotgan bolalar hech qanday raqamli savodxonlikka oid bilimga ega bo'lmasdan turib, gadjet va smartfonlarning barcha funksiyalaridan mustaqil foydalanish qobiliyatiga ega.

Biz ota-ona burch va mas'uliyati to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushinib olishimiz kerak. Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha hisoblanadi. Burch – ma'naviy sohada yuksak mas'uliyat, mustahkam e'tiqod, lafzi halollik, huquqiy sohada qonunga itoatkorlik, belgilangan me'yoriy hujjatlar asosida ish yurituvchi, yuklatilgan majburiyatni anglash va uni to'liq bajarishni nazarda tutadi.

Shunday ekan, oila tashkil topgandan keyin ota-onaning o'z-o'zidan amalga oshirishi zarur bo'lgan burchlari vujudga keladi.

Ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish bolalar, ayniqsa, yoshlarda ma'naviy illatlarni avj olishiga sabab bo'lmoqda. Ming afsuski, hozir yoshlar orasida loqaydlik og'ir bir dard, xuddi tuzalmas bir xastalikday ildiz otib borayotganga o'xshaydi. Yurtimizga xorijdan shiddat bilan kirib kelayotgan, bolalar va yoshlar axloqiga jiddiy ta'sir etayotgan fahsh va buzuvchiliklarni targ'ib etuvchi ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontentlar farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganiga go'yo beparvomiz. Qayerda beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng zarur masalalar o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, oqibati halokatga olib keladi. Loqayd odamlardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na sadoqat va na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi, Vatani taqdiriga ham bamisoli begonadek qaraydi.

O'zbekistonda ham maktab ta'lim tashkilotlarida amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bola xavfsizligi muammosi kundan kunga bahs-munozaralar markaziga aylandi. Ijtimoiy hayotda bola atrofida o'zi yolg'iz qolganda yoki yordamga muhtoj bo'lgan vaziyatda bolani o'ziga o'zi yordam ko'rsatishi to'g'risidagi bilimlarni xorijiy davlatlar singari O'zbekistonda ham maktab ta'lim tashkilotlarida amaliyotga tatbiq etish bugungi zamon talabi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ular ta'limiy, ijodiy va kommunikativ imkoniyatlarni kengaytiradi, ammo nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish yoshlarning psixologik holati, axloqi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ota-onalar, pedagoglar va jamiyat vakillari yoshlarning raqamli madaniyatini shakllantirishda faol ishtirok etishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Raqamli madaniyat asoslari. – Toshkent, 2020.
2. Hasanov B. Internet psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Castells M. The Rise of Network Society. – Oxford, 2010.
4. Boyd D. It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. – Yale University Press, 2014.
5. Jenkins H. Convergence Culture. – New York, 2006.
6. Madrahimov A., Nurullayev H., Husanova N., Meliyeva M. Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri. O'quv qo'llanma– T.: «Ma'naviyat», 2024. – 88 b.

7.Rustamovich, Q. J. "MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 22.4 (2023): 115-117.

8.Qarabayev J. R. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI //Inter education & global study. – 2024. – №. 5 (1). – С. 450-455.